

**Durdona XUDOYBERGANOVA,**  
*Toshkent davlat transport universiteti talabasi*  
*E-mail:xudayberganovadurdona07@gmai.com*

*Alfraganus Universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) A.Sh. Obidov taqrizi asosida*

## INGLIZZABON QALAMKASHLARI ASARLARI O'ZBEK TILIDA

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada ingiliz adiblarining faoliyatini hamda ularning asarlarini o'zbek tilida talqin qilinish jarayonidagi o'zgarishlar va qiyinchiliklar haqida yoritib berilgan. Shuningdek, ingiliz asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan ko'plab o'zbek olimlari haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Quyida keltirilgan ma'lumotlar ingliz tilidan dastlab birinchilardan bo'lib tarjima qilingan asarlar va tarjimonlar haqida bayon etadi.

**Kalit so'zlar:** tarjimon, tarjima, usul, ingiliz adabiyoti, o'zgarishlar, ingliz adiblari, matn, tarjima qilinayotgan til.

### THE WORKS OF ENGLISH – SPEAKING PENMEN IN UZBEK

Annotation

In this scientific article, the activities of English writers and changes in the process of interpretation of their works in the Uzbek language and difficulties are explained. Also English works into Uzbek many Uzbek scientists who translated it were discussed in detail. Below the given information was originally translated from English describes works and translators.

**Key words:** translator, translation, method, English literature, changes, English writers, text, target language.

### ПРОИЗВЕДЕНИЯ АНГЛИЙСКИХ ПИСАТЕЛЕЙ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной научной статье рассматривается деятельность английских писателей и освещены изменения и трудности в процессе интерпретации их произведений на узбекском языке. Также подробно обсуждались многие узбекские ученые, переводившие английские произведения на узбекский язык. Информация ниже описывает произведения и переводчиков, которые были одними из первых, переведенных с английского языка.

**Ключевые слова:** переводчик, перевод, метод, английская литература, изменения, английские писатели, текст, переводной язык.

**Kirish.** Tarjima tarixi juda qadim zamonalardan boshlanadi. Turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlari bilan muomala-munosabatda bo'lganlarida azaldan tarjimon (tilmoch) yordamiga ehtiyoj sezganlar. Savdo-sotiq ishlari, diplomatik aloqalar va madaniy-ma'rifiy aloqalar vaqtida hamma vaqt tarjimaga zarurat tug'ilgan. Shu bois xalqlar o'z tarjimonlariga chuqur hurmat bilan qaraganlar. Uzoq davrlar ichida og'zaki shaklda surgan tarjimachilik faoliyati asta-sekin yozma usulga ham ko'chgan. Mamlakat aloqalari, turli-tuman hujjatlarning o'zga xalqlar tillariga tarjima qilishni taqozo etgan. Davrlar o'tishi, fan- texnika, adabiyot va san'at taraqqiy munosabati bilan xilma-xil sohalar bo'yicha ko'plab adabiyotlar payo bo'lgan ekan, ularning ham muloqotga kirishayotgan boshqa tillariga tarjima qilishga ehtiyoj sezila boshlagan edi. Shunday qilib, Arab, Fors tillaridan, qisman Hincha, yunoncha va usmonli turkchadan, keyingi bir yarim asr mobaynida esa rus va g'arbiy Yevropa tillaridan ona tilimizga talay adabiyot, tarixiy va ilmiy-texnikaviy asarlar o'girildiki, ular o'zbek xalqi yozma adabiyotini katta ulushini tashkil etadi.

Yurtimizda tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan bir safda rivojlanib, uning ajralmas tarkibi qismiga aylandi. Shayx Sadiyning "Guliston"i, Nizomiy Ganjavining "Maxzan-ul asror", "Xisrov va Shirin"i, Firdavsining "Shohnoma"si. Kaykovusning "Kobusnomasi", Umar Xayyom ruboiyları, Xofiz g'azallari, Arab Izhodiy fantasiyasi mahsuli bo'lmish "Ming bir kecha", hind ertagi "Kalila va Dimna", Robindranat Tagor ramanlari, qirg'iz xalqi eposi "Manas", L. N. Tolstoy romanlari, A. S. Pushkin she'riyati, Muxtor Auezovning "Abay" romani, S. Ayniy va M. Tursunzoda asarlari, Turkman adabiyoti namoyandalari Maxtumquli va Kerboboevlar ijod mahsullari, T. G. Shevchenko she'riyati va boshka yuzlab asarlarning har biri o'zbek madaniyati tarkibiga kiradi.

Bizning e'tiborimizni o'ziga ko'prok tortayotgan mamlakat ahllari, chunonchi, G'arbiy Yevropa mamlakatlari adabiyotining ajralmas bo'lg'i hisoblanmish Ingiliz adabiyoti va inglizzabon ijodkorlar sanalmish amerika adabiyoti tajribasi sanaladi.

Ingliz tilida qalam tebratgan yozuvchilar ijodidan amalga oshirilgan tarjimalar tarixiga nazar tashlar ekammiz, XIX asr oxiri va XX asr boshida A. Conan Doilning "Sherlock Holmes haqidagi hikoyalar" va Daniel Defoning "Robinson Crusoe" asarlarining uzbekcha ga o'girilganligiga guvoh bo'lamiz. Asarlar qisqartilgan shaklda yarim hikoya tarzida tarjima qilingan. Masalan, 1891 yilda nashr etilgan "Mashur ingliz Robinzunning hikoyasi" 400 betlik ruscha nashridan 77 sakhifada qisqartirishni amalga oshirilgan, ozarbaizhoncha tarjima esa Muhammad Fozilbek o'g'li tomonidan yanada qisqartirilib, 48 sahifa holatiga keltirilgan.

Ushbu asarlar tarjimalari davr talabi darajasidan uzoq bo'lsa-da, asrimiz o'zbek madaniyatida yuz bergen katta voqeа ingliz xalqi badiyi yodgorliklarini o'zbek tiliga o'girish davridagi adabiyotimiz tarixida avvalgidek molikdir.

30- yillarning birinchi yarmidan etiboran o'zbek kitobxonlari inglizzabon mualliflar asarlari bilan yaqindan tanisha boshladilar. Bu davrda buyuk ingliz dramaturgi V. Shekspir ijodi tarjimonlarni ko'prok e'tiborni o'ziga tortdi. Dramaturgning nazmda bitilgan "Veronalik ikki yigit" komediyasi 1930 yilda "Hamlet" tragediyasini 1934 yilda shoir Cho'lpion (P.A. Kaphshinning 1893 yildagi nasriy tarjimashidan) nasriy yo'l bilan o'zbek tiliga tarjima qilishdi.[1]

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** "Hamlet" tragediyasi tarjimasi ko'pgina jiddiy xato va kamchiliklarga ega bo'lishiga qaramasdan, o'zbek kitobxonlarining sevimli asarlaridan biriga aylandi va Hamza teatri repertuaridan mustakam o'rin egalladi. Shu yil buyuk ingliz shoiri Byronning "Vido" nomli she'riy to'plami hamda Langston Hughesning qator she'rlari Sanjar Siddiq tarjimsida bosmadan chiqdi. Umumiyl o'n yilliklarda o'zbek kitobxonlari jahon adabiyotining bir talay muhim namoyandalari asarlarini ona tilida mutolaa qila boshladilar. Abdulla Oripov Dantening "Ilohiy Komediya" sini, Erkin Vohidov Gytening "Faust", Qodir Mirmuhammedov Gomerning "Odissey", Jovanni Bokkachonning "Decameron"ini, Mirtemir qir qiz eposi "Manas"ni, Muhammad Ali hind halqining "Ramayana" eposi, yana ko'pchilik yozuvchi va shoir tarjimonlar Victor Hugo,

Honore de Balzac, Aleksandr Duma, Friedrich Schiller, Johann Wolfgang Goethe, Roman Rolland asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, xalq e'zzoziga sazovar bo'ldilar.

Ingliz ijtimoiy-madaniy hayatida uyg'onish gumanizmi va hayat dialektikasi. F.Bekon, E.Spenser, V.Shekspir estetik qarashlari talqini. B.Jonson, Milton, D.Umstellilar ijodida «metafizik muktab» an'anaları. Idealistik motivlar va ritsarlik an'anaları talqini. 1948 yildan keyingi yangi dvoryanlar» publisistlik prozachiligi yuzaga keldi.(Jon Drayden-1631-1700, Uilyam Uicherli-1642-1716, Jon Benyan-1628-1688, Semyuel Betler-1612-1681, Jon Milton-1608-1674) [3]

1964 yildan etiboran Shekspir sonetlari M. Shayxzoda, Yusuf Shomansur, Zohijon Obidovlar tomonlaridan o'zbekchaga o'girila boshlandi. Keyin Shekspir qalamiga mansub 154 sonnetning hammasi shoir Yusuf Shomansur tomonidan o'girilib, 1978 yilda alohida kitob tarzida chop etildi.

1971 yilda Shotland shoiri Robert Bernsnings "Kushik va balladalari" Kitobi Muhammad Ali tarjimasida nashr etildi. 1974 yilda Bayronning she'r va balladalari M. Shayxzoda, Jumaniyoz Zhabborov, Muhammad Ali, Rauf Parfi va Shukrullolar tarjimalarida kitoblarda chop etildi.

1980-90 yillar Longfellowning "Hayvata haqida qo'shiq" she'riy asari, Shekspirning "Makbet" fojiasi (Sadulloh Ahmad tarjiması), Kristofer Marloning "Sohibqiron Temur" fojiasi (Ma'ruf Jalil tarjasi) o'zbekchaga o'girildi. 1988 yilda buyuk ingлиз shoiri Georges Byron tug'ilganiga 200 yil to'lishi munosabati bilan qator gazetası va jurnallar saxifalarida shoirning "Don Juan" dostonidan Abdulla Sher aslyatdan bevosita o'girgan parchalar bosildi.

Ingizzabon mualliflar ijodidan amalga oshirilgan tarjimar soni yil sayin osha bordi. V. Shekspirning O'zbekchaga "Hamlet" tragediyasi 1938 yilda Vohid Zohidov tomonidan tarjima qilindi. 1946 yilda V. Shekspirning "Romeo va Juliet" tragediyasi o'zbek tiliga o'girgan. M. Shayxzoda 1948 yilda "Hamlet" tarjimasiga qo'l urdi. Asliyatga monand qilib B. Pasternakning ruscha tarjimasidan she'riy tarzda amalga oshirilgan bu tarjima Cho'lpon va V. Zohidov tarjimalaridan har jihatdan mukammal edi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Taniqli ingilizzabon yozuvchilari haqida so'z borganda, ingilz adabiyotining shakillanishida va dunyoda yetakchi o'rirlarni qo'lga kiritishida, Garri Potter romanlari turkumi asoschisi, Joanna Ketlin Rowling, eng mashhur nasriy XNUMX asrning muallifi Charlz Dikkens (Uning mashhur kitoblari: "Oliver Twist", "Buyuk umidlar", "Kichik Dorrit")larning hissaları katta. Dikkens jurnalist sifatida ish boshlagan. O'shanda ham u londonliklarning psixologik portretlарini chizishda, ingilzlar hayotining qiziqarli eskizlarini yaratishda juda muvaffaqiyatlil bo'lgan. Bundan tashqari, detektiv fantastikaning eng mashhur mualliflaridan biri bo'lgan 60 dan ortiq detektiv romanlar, 6 ta psixologik va 19 ta hikoyalar to'plamini yozishga muvaffaq bo'ldi Agata Kristi va Artur Konan Doyllarning ham o'rni beqiyos. Artur Konan Doyl adabiy faoliyatini qissalar bilan boshlagan. Universitetni tugatib, tibbiyot bakalavriga aylanganidan so'ng, u odamlarni davolashni boshladi va faqat 10 yildan so'ng u o'zining asosiy daromadini yozishga qaror qildi [2].

Taniqli teatrshunos olimlar M. Qodirov va T. Tursunovlarning qayd etishlaricha, "Hamlet" tragediyasi hamza nomli Akademik drama (khozirgi O'zbek Milliy) teatrлari sahnasida qo'yaniga o'ttiz yil to'lgan kezlardayok (1965) asar o'zbek tilida ikki ming marta, "Otello" tragediya esa besh yuz martadan ortiqroq o'ynalgan edi.

1943 yilda mehon bo'lib kelgan Britaniya parlament delegatsiyasi sahnasida hamza nomli drama teatrida "Otello" tragedysini tomosha qilganidan keyin, teatr taassurotlarni qayd etish daftarida yozib qo'yan ushbu so'zlarini keltirish joizdir: Britaniya parlament delegatsiyasi - Toshkent drama teatri saxnasida "Otello" ni ko'rib, juda huzur qildi." Buyuk asarning bu qadar zo'r va mohirona ijob etilishini xonadonimizdan juda uzoqda turib ko'rish bu bamsoli qadimiyo do'st bilan yangi do'stlar davrasida uchrashish, uni yangilangan alp bahodir holida ko'rishga o'xshaydi. Shunday kuchli ijob qo'yanliklari bilan artistlarni, uni samimiy qabul qilganlik bilan tomoshabinlarni chin qalbimizdan muborakboz etamiz. Asarning bundan ham ko'ra katta mahorat bilan o'ynalganini hech qayerda, hatto Londonda ham ko'rgan emasmiz. Biz xususan, Otello, Iago, Desdemona rollarini ijob etgan uch artistning o'yinini alohida qayd etish va ularga qo'yil qolganimizni ayttishni istar edik". Shuni qo'shimcha qilamizki, Britaniya parlamenti delegatsiyasi a'zolarini o'z mahoratlari bilan qoyil qoldirgan artist Otello roleni ijob etgan Abror Hidoyatov, Desdemona obrazini jonlantirgan Sora Eshonturaeva va Iago razilagini gavdalantirgan Lutfulla Nazrullaev kabi sevimli san'atkorlarimiz edilar.

1950-60 yillarga kelib o'zbek tiliga o'girigan asarlar tarjimalari sifat jihatidan ancha ustunligi bilan ajralib turadi: san'atkorlarning tajriba, mahorat va malakalari osha borib, tarjimlari qator xato va kamchiliklardan halos bo'lib sayqlash boshladi. Tarjima tanqidchiligi bo'yicha jurnali va gazetalar sahifalarida chop etilgan qator ilmiy tahlil va umumlashmalar ta'sirida ko'pchilik tarjimonlar o'z mas'uliyatlariga va ilmiy-tanqidni yondashadigan bo'ldilar. Shu kunlarda o'zbek kitobxonlari V. Shekspirning "Richard III" hamda "Antoni va Kleopatra" asarlarini Asqad Muxtor va Komil Yashin tarjimalarida o'qishga myussar bo'ldilar.

**Tahsil va natijalar.** V. Shekspirning ijodi bilan o'zbek kitobxon ommasini yanada kengroq tanishtirish uchun Republikamizning taniqli shoiri Jamol Kamol katta jonbozlik kuchini yo'naltiradi. U 80-yillarning birinchi yarmida V. Shekspirning atoqli shoir tarjimonlarimiz va o'girigan barcha dramatist tahrir asarlarini yaxshigina qilib nashrga tayorladi va o'zi ham muallifning "Kish ertagi", "Kirol Henry IV", "Macbeth", "Coriolanus" ", "Venice savdogari. " kabi beshta asarini tarjima qildi. Shunday qilib, 1981-85 yillar davomida V. Shekspirning o'n beshta dramatik asaridan iborat besh jildlik monitoring asarları G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etildi.

Taniqli yozuvchi-tarjimon Mirzakalon Ismoiliy ingliz yozuvchisi E. Voinichning "Suna" romanini 1934 yilda birmuncha qisqartirib o'zbek tiliga tarjima qilgan va 1936 yili jamoatchilik istak va mulohazalarini hisobga olib matnni qayta ko'rib chiqib, 196 yilda chop etilgan. Uni qayta o'qirib, asarning ancha mukammal tarjimasini kitobxon e'tiboriga havola qildi.

D. Defoning "Robinzon Kruzonning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" asarining 1948 yilda amalga oshirilgan birinchi tarjimasini 50-yillar kitobxonini qanoatlantiraolmaganini his etgan Y. Shamsharov ushbu muammoga asoslangan bayon etilgan tanqidiy fikr-mulohazalarni hisobga olgan holda 1953 yilda asarni bot nashr qildirdi. Ammo vaqt o'tishi bilan bu tarjima ham sinchkov va talabchan kitobxon talabidan orqada goldi. Buni inobatga olgan san'atkor tarjima matni ustida jiddiy ish olib borib, uni kitobxon saviyasiga ma'lum darajada moslashtirdi va 1965 yilda uni chop etti.

Tarjimonlar e'tiborini o'ziga tortgan yodgorliklar sirasiga Swiftning "Gulliverning sayohatlari" asari ham kiradi. Asar 1944 yilda S. Yo'ldoshev, 1945 va 1952 yillarda A. Xo'jaxonov tomonlaridan o'zbek kitobxonlariga tarjima qilinib, tortiq etilgan[4].

**Xulosa va takliflar.** Lekin tan olish kerakki, keyingi paylarda umid uchqunlari alangalanib, bilvosita tarjimadan bevosita tarjimaga o'tish ko'zga tashlanmoqda. Misol tariqasida O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, mojir tarjimon Amir Faizulloning hind tilidan o'zbekchaga o'girgan romanlari hamda she'r va hikoyalarini, "Mahabharat", "Mirza G'olib",

“Ramayana” kabi ko‘p seriali kinolentalarini, shuningdek, Arab va fors tillaridan amalga oshirilayotgan ko‘pchilik tarjimalarni taniqli olmonshunos Yanglish Egamov nemis tilidan o‘girgan roman va hikoyalarni keltirish mumkin.

Inglizzabon ijodkorlar asarlari tarjimasi haqida gap ketadigan bo‘lsa, bu yerda ham ijobiy chiqib ko‘zga tashlanmoqda. Ayrim kichik hajmdagi she’r va hikoyalar, qator kinofilmalar muhlislarga bevosita tarjima yordamida taqdim etilmoqda. 1996 yilda Dinora Sultonovaning asliyatdan bevosita amalga oshirgan qator ingliz shoirlari she’rlari tarjimasi “Farog’at” nomi bilan nashr etildi. 2003 yildan etiboran O‘zbekiston televideniyasi orqali takror va takror namoyish etilmoqda “Japan cinema” ijodkolarining “Oshin” nomli ko‘p seriali filmi O‘zbekchaga ingliz tilidan Hulkar Azam vositachi til yordamisiz tug’ridan-tug’ri obi-tobida tarjima qilindiki, bu yuborilgan ijobiy jarayonning birinchi mevalaridir.

Xullas, bilvosita tarjimandan bevosita tarjimaga o‘tish jarayoni boshlab yborildi. Bu sai’harakat o‘zbek kitobxonlarining jahon adabiyoti durdonalari namunalari bilan bog‘liq holda tanishishlari uchun imkoniyatlar yaratib beradi. Nihoyat qayd qilish zarurkida, tarixida ko‘p asrlik davr mobaini juda katta badiy-adabiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, ilmiy, diniy asarlar o‘zbek tiliga o‘girildi. Tarjima adabiyoti Vatan adabiyoti bilan yonmayon payo bo‘lib, rivojlanib, xalqimizning g’oyaviy-estetik ehtiyojini tarbiya-da muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Adabiyotimiz tarixi katta ulushini tashkil etish bunday boylikni ilmiy-tanqidiy o‘rganib, natijalarini tarjima amaliyotiga joriy etish tarjimachilik ishining yuqori savyasini belgilaydi[5].

#### **ADABIYOTLAR**

1. Ijtimoiy sayt: W.W.W Ziyouz.com kutubxonasi.
2. Hamdamov U, Qosimov A. Hahon adabiyoti, T “Barkamol fayz media”, 2017.
3. Jahon Adabiyoti fan dasturi, Toshkent- 2019.
4. Tarjima Nazariyasi Asoslari. Тошкент тумани Келес ш. К. Родуров кучаси МЧЖ “Нош ир”Qudrat Musayev.
5. Фанишер Раҳимов. Таржима назарияси ва амалиёти. –Тошкент: 2016,